

Sayohat paytida sog'lig'ingiz haqida qayg'uring

2021 30 Iyul

Sayohatlar ma'lum darajada COVID-19 infeksiyasi yuqishi yoki tarqalishi xavfi bilan bog'liq.

«Uzbekistan Airways» AJ jamoasi barcha sayohatchilardan quyidagi ehtiyot choralariga roiya qilishni so'rab qoladi:

- Parvozdan oldin PZR usuli orqali yangi koronavirus infeksiyasi yo'qligini bilish uchun testdan o'ting. Sinov chet elga kelishingizdan 72 soat oldin amalga oshirilishi va ingliz tilida toldirilishi kerak;
- Harorati 37 darajadan yuqori, shamollagan, yo'talayotgan va/yoki nafas olishi qiyin bo'lgan yo'lovchilarga samolyot bortiga kirishga ruxsat etilmaydi;
- Koronavirus infeksiyasining tarqalishini olish maqsadida, samolyot bortida shaxsiy himoya vositalarini ehtiyoj sezilmaganda olib tashlamaslik, havo kemasi sahnida harakatni, shu jumladan hojatxonaga borishni maksimal darajada cheklashingizni so'rab qolamiz. Hojatxonalarda o'rnatilgan dezinfeksiya vositalaridan foydalaning.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir parvozdan keyin samolyot ichi maxsus vositalar yordamida yaxshilab tozalanadi, barcha sirtlar va buyumlarga ishlov beriladi. Dezinfeksiya salonlarda va bagaj bo'linmalarida amalga oshiriladi. «Uzbekistan Airways» AJ ning barcha samolyotlari virus va bakteriyalarning 99,97 foizini ushlaydigan zamonaviy HEPA-filtrlari bilan jihozlangan.

Koronavirusning tarqalishini oldini olish va infeksiyaga qarshi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun barcha ekipaj a'zolari parvozdan oldin umumiy sog'liq holati va haroratni o'lchash uchun majburiy tekshiruvdan o'tadilar. Parvoz davomida ular ham yo'lovchilar kabi, niqob va himoya qo'lqoplarini taqishadi.

Sizga va yaqinlaringizga yoqimli parvoz tilaymiz!

Batafsil: <https://www.uzairways.com/uz/covid-19-0>

«Uzbekistan Airways» AJ Axborot xizmati.

Telegram: t.me/uzbekistanairways